XALQ DEPUTATLARI YAKKABOG’ TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 18-aprel VI-55-54-4-68-K/24 Yakkabog’ tumani

Yakkabog’ tumanidagi 15 ta geografik obyekt (ko’cha)ni qayta nomlash to‘g‘risida

O`zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo`mitasi huzuridagi Kadastr agentligining topshirig`iga ko`ra, bir tuman (shahar) doirasida takrorlangan mahalla va ko`cha nomlari hamda O`zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to`g`risida” Qonuni talablariga nomuvofiq bo`lgan mahalla va ko`cha nomlarini qayta ko`rib chiqish, ekspertizadan o`tkazib, qonun doirasida rasmiylashtirish ko`zda tutilgan edi.

Shunga ko`ra, Yakkabog` tuman Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash komissiyasi tomonidan tumandagi 15 ta geografik obyektni qayta nomlash bo`yicha taklifi viloyat va Respublika toponimika komissiyasi tomonidan belgilangan tartibda o`rganib chiqilib, tegishli qaror qabul qilingan. Bu haqida O`zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo`mitasi huzuridagi Kadastr agentligining 2022-yil 14-martdagi 08-01925-sonli xati bilan qonunga muvofiq deb topilgan va ma`qullangan hamda Yakkabog’ tuman holimligining xatini inobatga olib O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Yakkabog’ tumanidagi 15 ta geografik obyekt (ko’cha)ni qayta nomlash to‘g‘risida O`zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo`mitasi huzuridagi Kadastr agentligining 2022-yil 14-martdagi 08-01925-sonli xatiga asosan viloyat komissiyasi tomonidan ma’qullanganligi inobatga olinsin.

2. Yakkabog’ tumanidagi 15 ta geografik obyekt (ko’cha)ni qayta nomlash ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi (D.Xushvaqtova) mazkur sessiya qarori bilan tasdiqlangan geografik obyektlarning nomlarini 10 kun muddatda davlat reyestriga kiritish uchun zaruriy ishlarni amalga oshirishni ta’minlasin.

4. Davlat kadastrlar palatasi Qashqadaryo viloyati boshqarmasi Yakkabog` tuman filiali boshlig`i (U.Turdiyev)ga geografik obyektlarning nomlari bo‘yicha elektron bazasiga ushbu qarorga muvofiq belgilangan tartibda tegishli o‘zgartirishlar kiritsin.

5. O‘zbekiston Mahallalar uyushmasi Yakkabog‘ tuman bo`limi boshlig`i (S.Avlayev), Yakkabog’ tuman qurilish va uy-joy kommunal xo’jaligi bo’limi boshlig’i (A.Berdiqobilov) hamda MFY raislari bilan birgalikda nomlari o‘zgarib qayta nomlangan aholi punktlari nomlari yozilgan zamonaviy va milliy dizayn asosida peshlavhalar o‘rnatilishini ta’minlash vazifasi yuklatilsin.

6. Tuman ichki ishlar bo`limi fuqarolarning ro`yxatdan o`tkazishda mahallaning yangi nomini inobatga olsin.

7. Tuman hokimining matbuot xizmati kotibi (Sh.Xasanov), “Yakkabog` ovozi” gazetasi bosh muharriri (B.Azizov)lar mahallaning yangi nomini matbuot va tuman hokimligi saytida e`lon qilinishini ta`minlasin.

8. Ushbu qarorning ijrosini ta’minlash tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari E.Beknayevga, nazorati Xalq deputatlari tuman Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal xo‘jalik va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi A.Juraev zimmasiga yuklatilsin.

9. Mazkur qaror rasman e`lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Kengash raisi



ABDULAYEV
LUTFIDIN
DJURAYEVICH

Xalq deputatlari Yakkabog’ tumani
Kengashining
2024-yil 18-apreldagi
VI-55-54-4-68-K/24 -son qaroriga
1-ilova

T/r	Geografik obyektning turi	Joylashgan o’rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Ekspert Komissiyasining xulosasi
1	Ko’cha	Madaniyat MFY	Barkamol	O’zbegim	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
2	Ko’cha	Qayrag’och MFY	Dilkash	Nastarin	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
3	Ko’cha	To’qboy MFY	Duradgorlar	Duradgorlar-1	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
4	Ko’cha	Turon MFY	Qamishzor	Qamishzor-1	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
5	Ko’cha	Qatag’on MFY	Lolazor	Lolazor-1	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
6	Ko’cha	G’ozliq MFY	Navqiron	Sadaf	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
7	Ko’cha	Daryo MFY	Hisor	Tabassum	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
8	Ko’cha	Choydari MFY	Hurriyat	Fayzobod	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
9	Ko’cha	Uzun MFY	Yangiasr	Mehnatkash	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
10	Ko’cha	Ulamji MFY	Qudrat	Mezon	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
11	Ko’cha	Ulamji MFY	Fuzalolar	Anorzor	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
12	Ko’cha	O’rta MFy	Ozod	Ozodlik	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
13	Ko’cha	Shar-Sharbog’ot	Polvonlar	Sharshara-1	Qonun hujjatlari

		MFY			talablariga muvofiq
14	Ko’cha	Shar-Sharbog’ot MFY	Kamolot	Buzrukota	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
15	Ko’cha	Yangihayot MFY	Birodarlik	Birodarlik-1	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq